

## ROQIMNING “XOJAMIZ” RADIFLI G‘AZALI: MATNIY XUSUSIYATLARI, MANBA TAFOVUTLARI VA BADIY TALQINI

**Jo‘rayev Anvar Voxidjon o‘g‘li,**

*Qarshi davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o‘zbek tili)*

*mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

[anvarjurayev100@gmail.com](mailto:anvarjurayev100@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Sh. Nuriddinov,**

*Qarshi DU dotsenti, f.f.d. (DSc)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XIX asr o‘zbek mumtoz adabiyotining vakillaridan biri bo‘lgan Roqimning “Xojamiz” radifli g‘azali matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Tadqiqotda g‘azalning devondagi asl nusxasi hamda Qosimxo‘jayeva tomonidan amalga oshirilgan tabdil matni qiyosiy o‘rganilib, ular orasidagi matniy tafovutlar aniqlanadi. Shuningdek, g‘azalning tarkibiy qurilishi, radif va qofiya tizimi, poetik tasvir vositalari, madhiyaviy ruh, ijtimoiy mazmun hamda shoirning badiiy mahorati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida g‘azalning tabdil qilinmagan qo‘shimcha o‘n bir bayti ham ilmiy muomalaga kiritilib, ularning asar mazmunini kengaytirishdagi o‘rni ochib beriladi. Maqolada Roqim ijodining matnshunoslik jihatdan o‘rganilishi o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini boyituvchi muhim ilmiy manba ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Roqim, g‘azal, “Xojamiz” radifi, matnshunoslik, devon, bayoz, tabdil, matniy tafovut, poetika, mumtoz adabiyot, madhiyaviy uslub, badiiy san‘atlar, radif, qofiya, qo‘lyozma.

**Аннотация.** В данной статье газель с радифом «Хожамиз» Роқим, одного из представителей узбекской классической литературы XIX века, исследуется с точки зрения текстологии и литературоведения. В исследовании сопоставительно анализируются оригинальный текст газели, содержащийся в диване, и табдил-текст, выполненный Косимхужаевой, выявляются текстовые различия между ними. Также рассматриваются композиционное строение газели, система радифа и рифмы, поэтические средства изображения, панегирический дух, социальное содержание и художественное мастерство поэта. В ходе исследования в научный оборот вводятся ещё одиннадцать бейтов, не вошедших в табдил, а также раскрывается их роль в расширении содержания произведения. В статье обосновывается, что текстологическое изучение творчества Рокима является важным научным источником, обогащающим историю узбекской классической литературы.

**Ключевые слова:** Роким, газель, радиф «Хожамиз», текстология, диван, баяз, табдил, текстовые различия, поэтика, классическая литература, панегирический стиль, художественные средства, радиф, рифма, рукопись.

**Annotation.** This article examines the ghazal with the radif “Xojamiz” by Roqim, one of the representatives of nineteenth-century Uzbek classical literature, from the perspectives of textual criticism and literary studies. The study comparatively analyzes the original version of the ghazal preserved in the divan and the adapted text prepared by Qosimxo‘jayeva, identifying the textual differences between them. In addition, the structural composition of the ghazal, its radif and rhyme system, poetic imagery, panegyric spirit, social content, and the poet’s artistic mastery are examined. During the research, eleven additional couplets that had not previously been adapted are introduced into scholarly circulation, and their role in expanding the meaning of the work is clarified. The article substantiates that the textual study of Roqim’s творчество constitutes an important scholarly source enriching the history of Uzbek classical literature.

**Keywords:** Roqim, ghazal, “Xojamiz” radif, textual criticism, divan, bayoz, adaptation, textual differences, poetics, classical literature, panegyric style, poetic devices, radif, rhyme, manuscript.

**Kirish.** O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida hali yetarlicha o‘rganilmagan ijodkorlar va ularning qo‘lyozma merosi mavjud bo‘lib, bu manbalarni ilmiy tadqiq etish bugungi matnshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qo‘lyozma manbalar asosida shakllangan devon va bayozlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ko‘plab asarlarning asl matni, tarkibi va badiiy xususiyatlarini tiklash mumkin bo‘ladi. Shu jihatdan Roqim ijodi ham o‘zbek mumtoz adabiyotining kam tadqiq qilingan qatlamlaridan biri sifatida alohida ilmiy qimmat kasb etadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Roqim she‘riyatida ishqiy, ijtimoiy, falsafiy va madhiyaviy motivlar o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Shoirning ayrim g‘azal va muxammaslari devon hamda bayozlar orqali bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ularning matniy holati turli tafovutlarni namoyon etadi. Ayniqsa, “Xojamiz” radifli g‘azal Roqimning madhiyaviy yo‘nalishdagi ijod namunalaridan biri sifatida diqqatga sazovordir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur g‘azal nafaqat mazmuni, balki hajmi jihatidan ham alohida e‘tiborga loyiqdir. Chunki mumtoz o‘zbek she‘riyatida yigirma bir baytli g‘azallar nisbatan kam uchraydi. Roqimning ushbu g‘azali esa aynan hajman yirikligi, mazmun qatlamlarining kengligi va ijtimoiy-falsafiy ruhining kuchliligi bilan boshqa g‘azallardan ajralib turadi. G‘azalning dastlabki o‘n bayti Qosimxo‘jayeva tomonidan tabdil qilingan bo‘lsa-da, uning davomi hisoblangan yana o‘n bir bayt uzoq vaqt ilmiy muomaladan chetda qolgan.


**Tahlillar va natijalar.** Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Roqimning “Xojamiz” radifli g‘azalini matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish, devondagi asl nusxa va tabdil matni o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash hamda g‘azalning poetik-badiiy xususiyatlarini yoritishdan iboratdir.

Roqimning “Xojamiz” radifli g‘azali shoir devonining qo‘lyozma nusxalarida saqlangan bo‘lib, mazkur matni tadqiq qilishda devondagi asl nusxa hamda Qosimxo‘jayeva tomonidan amalga oshirilgan tabdil asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Matnshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, g‘azalning bu ikki nusxasi o‘rtasida ayrim leksik, fonetik va uslubiy tafovutlar mavjud. Qosimxo‘jayeva tomonidan amalga oshirilgan tabdilda g‘azalning dastlabki o‘n bayti keltirilgan bo‘lsa, devonning asl nusxasida g‘azal davom etib, jami yigirma bir baytdan iborat ekani aniqlanadi. Bu holat, avvalo, g‘azalning to‘liq shakli uzoq vaqt ilmiy muomalaga to‘liq jalb qilinmaganini ko‘rsatadi. Shuningdek, tabdil jarayonida ayrim o‘rinlarda so‘zlarning imlosi va talaffuzi soddalashtirilgani kuzatiladi. Masalan, quyidagi baytda matniy tafovut yaqqol ko‘zga tashlanadi:

*Sizdin o‘zgaga bu uch mansab muyassar bo‘lmamish,*

*Bo‘lg‘oli paydo jahon mulkida inson xojamiz.*

Mazkur misrada “bo‘lmamish” so‘zi devonning asl nusxasida alohida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, sahifa chetida qayta yozilgan. Bu esa kotib yoki keyingi tahrirchi tomonidan matni aniqlashtirish maqsadida amalga oshirilgan tuzatish ekanini ko‘rsatadi.



Matnshunoslikda bunday holatlar muallif matnining shakllanish bosqichlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ayrim misralarda “anglamay” va “onglamay”, “topmayin” va “tobmayin” kabi variantlar uchraydi. Bunday tafvutlar, asosan, eski o‘zbek tilidagi fonetik almashinuv va kotiblar yozuv uslubi bilan bog‘liqdir.

Masalan:

*Ne iloj aylarni bilmay, ne qilurni anglamay.*

*Bordururlar asru mahzunu parishon xojamiz*

hamda

*Ne iloj aylarni bilmay, ne qilurni onglamay.*

Mazkur farq ma’no jihatdan jiddiy tafvut hosil qilmasa-da, matnning fonetik va stilistik tabiatini o‘rganishda muhimdir.

Qosimxo‘jayeveva tabdilida ayrim birikmalar zamonaviy o‘quvchi uchun soddalashtirilgan bo‘lsa, devondagi asl nusxa mumtoz tilning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolgan. Shu sababli devon nusxasi ilmiy jihatdan birlamchi manba sifatida alohida qimmatga ega. “Xojamiz” radifli g‘azal kompozitsion jihatdan bir necha mazmun qatlamlaridan tashkil topgan. G‘azalning dastlabki baytlarida madh etilayotgan shaxsning ilm-fazli, donishmandligi va ijtimoiy mavqei tasvirlanadi. Keyingi baytlarda esa shoirning murojaati tobora ijtimoiy va axloqiy mazmun kasb etadi.

G‘azal matla’si quyidagicha:

*Ey najibul asl sohib fazli davron xojamiz,*

*Donish omuzu ado, fahm-u suxandon xojamiz.*

Mazkur matla'da madh etilayotgan shaxs "najibul asl", ya'ni nasli pok, "sohib fazl", "suxandon" kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. Shoir bu orqali uni ilm-fazl egasi, komil inson sifatida tasvirlaydi.

Ikkinchi baytda esa mazkur tavsif yanada chuqurlashadi:

*Olimi ilmi xaqoyiq, koshifi sirri daqiq,*

*Ollingizda bor har mushkil so'z oson, xojamiz.*

Bu yerda "olim", "koshifi sirri daqiq" kabi sifatlar orqali madh qilinayotgan shaxsning ilmiy salohiyati ulug'lanadi. Shoir uni murakkab muammolarni hal qiluvchi donishmand sifatida ko'rsatadi. G'azalning keyingi baytlarida esa ijtimoiy mazmun kuchayadi. Xususan, mansab va martaba masalasiga doir fikrlar bayon qilinadi:

*Donish-u, fazl-u kamolingizni anglab lutf etib,*

*Berdi uch mansabni sizga xazrati xon xojamiz.*

Mazkur baytda madh qilinayotgan shaxsning fazilati tufayli yuqori mansabga erishgani ta'kidlanadi. Shoir mansabni nasab emas, ilm va kamol natijasi sifatida talqin qiladi. Biroq g'azal faqat madhiyadan iborat emas. Unda davrning ijtimoiy muammolari ham aks etgan. Quyidagi bayt bunga yaqqol misol bo'la oladi:

*Ko'chalarda choshirib dastorini haryon kezar,*

*Necha odam topmayin dardiga darmon xojamiz.*

Bu misralarda shoir jamiyatdagi nochor insonlarning ahvolini tasvirlaydi. "Dastorini choshirib har yon kezish" obrazi insonning iztirob va muhtojlik holatini juda ta'sirchan ifodalaydi. Shuningdek, quyidagi baytda ruhiy tushkunlik va umidsizlik holati aks etadi:

*Ne iloj aylarni bilmay, ne qilurni anglamay,*

*Bordururlar asru mahzunu parishon xojamiz.*

Bu yerda shoir insonlarning hayotdagi mushkul vaziyatini tasvirlab, ijtimoiy fojiaiylikni ochib beradi. Roqimning "Xojamiz" radifli g'azalining eng muhim jihatlaridan biri uning qo'shimcha o'n bir bayt bilan davom etishidir. Aynan mana shu baytlar g'azalning mazmun doirasini kengaytiradi va asarga yangi poetik qatlam olib kiradi. Ushbu g'azalning Qosimxo`jayev atabdil qilmagan yana 11 bayti mavjud. Biz buni bevosita devonni tabdil qilish jarayonida aniqladik. Qosimxo`jayeva tabdili va Devonning 32-A sahifasida joylashgan "Xojamiz" g'azalini qiyoslash jarayonida tabdildagi variantda maqta yo`qligi va mazmunan yakun mavjud emasligi diqqatimizni tortdi va 32- B sahifadagi "Xojamiz" radifli g'azal yuqoridagi g'azalning davomi degan xulosaga keldik. Bunga g'zalda bir xil radif borligi, vazn me`yorlari mosligi va ,eng asosiysi, maqta va mazmunning mosligi kata sabab bo`ldi. Quyida bu g'azalning nashrda tushub qolgan 11 baytini xavola qilamiz.

*Ayladuk tilim sizga ko'rguzub ajz-u niyoz,  
Marhamatsizdin umid aylob murodin xojamiz.*

*Bizga bir dard akurding tole'nikim topmodi,  
Yo'l toporg'a qildingiz sa'y chandon, xojamiz.*

*Oxir alam uch qaro' boshi ino'm etdingiz,  
G'ayrat-u jud-u karam aylob namoyon xojamiz.*

*Bilo jud-u baxshish-u in'omingizni ko'rgon el,  
Qildim afsona holimni pinhon xojamiz.*


*Xarj etay desak oni hech kimsa bizdin olmadi,  
Ot kiromi bo'ldi sizga endi nodon xojamiz.*

*Sizga xush kelgoy debon bir necha gustoxona so'z,  
Oytduq afv aylong oni qadrdon xojamiz.*

*O'tgon el debdur qavl o'z haddini bilso yaxshidur,  
Sizga bizdin so'z demokni had ne imkon xojamiz.*

*Qul yozor bo'lsa kechur xojasi budur masal,  
Rost so'z demongiz bu so'zni yolg'on xojamiz.*

*Roqim ushbu baytlarni sizga qildi peshkash,  
Qolmasun ko'nglumda deb bir zarra armon xojamiz.)*



Birinchi misralarda shoir madh qilinayotgan shaxsning obro'-e'tibori va nomining

mashhurligini ta'kidlaydi. "Muhringizni qazibon" iborasi esa amaliy xizmat va sadoqat ma'nolarini ifodalaydi. Keyingi baytda safar va umid motivi paydo bo'ladi. Ikkinchi misrada safar motivi ramziy ma'noda ham talqin qilinishi mumkin. Shoirning uzoq yo'l bosib, umid bilan huzurga yetib kelishi sadoqat va ixlos ifodasidir. Yana bir baytda iltijo va tavoze' ohangi kuchayadi: dastlabgi misralarda "ajz-u niyoz" birikmasi mumtoz she'riyatdagi an'anaviy tasavvufiy ifoda sifatida qo'llangan. Shoir o'zini ojiz banda sifatida tasvirlaydi. G'azalning keyingi baytlarida shoirning hayotiy mushkulotlari va iqtisodiy qiyinchiliklari ham aks etadi. Keyingi misralardagi "tole" obrazi inson taqdirining og'irligini anglatadi. Shoirning hayotdan nolishi boshqa asarlaridagi ruh bilan hamohangdir.

Ayniqsa, uchinchi bayt saxovat va muruvvat mavzusini ochishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur baytda madh qilinayotgan shaxsning saxiyligi ulug'lanadi. "Jud-u karam" iborasi mumtoz adabiyotda saxovat ramzi sifatida keng qo'llanadi. G'azalning yakuniy baytlarida esa shoirning samimiyligi va tavoze'si yanada kuchayadi. Maqta'da shoir taxallusining qo'llanishi g'azalning yakunlanganligini bildiradi. Qosimxo'jayeva tabdilida aynan shu baytlarning bo'lmasligi g'azalning to'liq shakli ilmiy muomalaga kirmaganini ko'rsatadi.

Mumtoz o'zbek she'riyatida madhiyaviy ruhdagi g'azallar muhim o'rin tutadi. Biroq Roqimning "Xojamiz" radifli g'azali oddiy madhdan iborat emas. Unda madh bilan bir qatorda ijtimoiy ruh va insoniy dard ham kuchli seziladi. Shoir madh etilayotgan shaxsni faqat ulug'lash bilan cheklanmaydi. U orqali jamiyatdagi muhtoj insonlarning dardiga ham e'tibor qaratadi.

Masalan:

*Sizga vojibdur muning shukronasiga har zamon,  
Qilsangiz bechoralarga xayru ehson xojamiz.*

Mazkur baytda shoir mansabdor shaxsni faqir va nochorlarga muruvvat ko'rsatishga da'vat etadi. Bu esa g'azalning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Roqimning boshqa asarlarida ham kambag'allik, darbadarlik va ijtimoiy tengsizlik motivlari uchraydi. "Xojamiz" radifli g'azalda ham ana shu ruh davom etadi. Shu sababli mazkur asar nafaqat madhiyaviy, balki ijtimoiy-falsafiy ruhdagi g'azal sifatida ham baholanishi mumkin.

Roqim ushbu g'azalda mumtoz she'riyat poetikasining ko'plab unsurlaridan mahorat bilan foydalangan. Avvalo, radifning takroriy ohangi asarning musiqiylikini oshiradi. "Xojamiz" radifi har bir bayt oxirida takrorlanib, g'azalning ichki ritmini mustahkamlaydi. Qofiya tizimi ham an'anaviy g'azal poetikasiga mos ravishda qurilgan. Shoir "davron", "suxandon", "oson", "urfon", "parishon", "ehson" kabi qofiyalardan foydalanib, tovush uyg'unligini hosil qilgan. Badiiy san'atlar orasida sifatlash, mubolag'a,

tazod va takror san'atlari alohida ko'zga tashlanadi. Masalan:

*Ko'chalarda choshirib dastorini haryon kezar.*

Mazkur misrada tasviriylilik kuchli bo'lib, insonning fojiaiy ahvoli yorqin ifodalangan. Shuningdek, g'azalda mumtoz adabiyotga xos tavoze' uslubi ham kuchli seziladi. Shoir o'zini kamtar tutadi va murojaat shaklidan unumli foydalanadi.

“Xojamiz” radifli g'azal matnshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy qimmatga ega. Chunki mazkur asarda qo'lyozma va tabdil o'rtasidagi tafovutlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchidan, g'azalning hajm jihatdan to'liq emas holda nashr qilinishi ilmiy muomalada muayyan bo'shliq yuzaga keltirgan. Devondagi asl nusxaning o'rganilishi esa g'azalning to'liq tarkibini tiklash imkonini beradi.

Ikkinchidan, ayrim so'zlarning yozilishidagi tafovutlar matn tarixini o'rganishda muhimdir. Masalan, “anglamay/onlamay”, “topmayin/tobmayin” kabi variantlar eski o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, qo'lyozmadagi tuzatish va qaydlar kotib faoliyatini o'rganish uchun muhim material hisoblanadi. Ayniqsa, “bo'lmamish” so'zining alohida qayta yozilgani matnning tahrir jarayonidan darak beradi. Shuningdek, yigirma bir baytli g'azalning mavjudligi Roqimning hajman yirik g'azallar yaratishga moyilligini ko'rsatadi. Mumtoz adabiyotda odatda 5–12 baytli g'azallar keng tarqalgan bo'lsa, yigirma bir baytli g'azal nisbatan kam uchraydi. Bu esa shoirning poetik imkoniyatlari keng bo'lganini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Roqimning “Xojamiz” radifli g'azali shoir ijodining muhim namunalaridan biri bo'lib, u matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan katta ilmiy qimmatga ega. G'azalda madhiyaviy ruh bilan bir qatorda ijtimoiy va axloqiy motivlar ham uyg'unlashgan.

Tadqiqot davomida devondagi asl nusxa va Qosimxo'jayeva tabdili o'rtasidagi tafovutlar aniqlandi. Ayniqsa, g'azalning qo'shimcha o'n bir bayti ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatildi. Ushbu baytlar g'azalning mazmun doirasini kengaytirib, uning poetik va kompozitsion yaxlitligini ta'minlaydi.

Roqim g'azalda radif va qofiya tizimidan mahorat bilan foydalangan, mumtoz poetikaning ko'plab vositalarini muvaffaqiyatli qo'llagan. Shoirning badiiy mahorati, ayniqsa, ijtimoiy ruhdagi baytlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot Roqim ijodini yanada chuqurroq o'rganish, uning qo'lyozma merosini ilmiy muomalaga kiritish va o'zbek mumtoz adabiyoti tarixini boyitishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Roqim devoni. Qo'lyozma manba.
2. O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, inv. № 1198.
3. Qosimxo'jayeva M. Roqim devoni tabdili. – Toshkent.
4. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi.

5. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan.
6. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent.
7. Fitrat A. Eski o‘zbek adabiyoti namunalari. – Toshkent.
8. Rasulov A. Mumtoz poetika asoslari. – Toshkent.
9. Is‘hoqov Y. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik. – Toshkent.
10. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent.
11. Oripov B. O‘zbek matnshunosligi masalalari. – Toshkent.
12. Sharipov J. Mumtoz adabiyot poetikasi. – Samarqand.
13. Abdurahmonov G‘. O‘zbek mumtoz adabiyoti va matnshunoslik. – Toshkent.
14. Karimov U. Qo‘lyozmalar tavsifi va matn tadqiqi. – Toshkent.
15. Mumtoz adabiyot terminlari lug‘ati. – Toshkent.

